




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2020-2021-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING 6-SINF O'QUVCHILARI UCHUN BOSQICHLI
IMTIHON O'TKAZISH BO'YICHA BOTANIKA FANIDAN METODIK
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



Toshkent-2021

Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining navbatdan tashqari ilmiy-uslubiy kengashida muhokamaga qoyilib, tavsiya qilindi (2021-yil 31-martdagi 1-son Ilmiy-metodik kengash qarori).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 6-sinf o'quvchilari bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar:

S.Rashidova – Chilonzor tumani Xalq ta'limi boshqarmasi “Tabiiy fanlar metodisti.

D.Qambarova – Toshkent shahar Shayxontohur tumani 59-sonli DIUM biologiya fani o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Y.Toirova – Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 112-sonli maktabning biologiya fani o'qituvchisi.

S.Xayitboeva – Toshkent shahar Chilonzor tumani 178-sonli maktabning biologiya fani o'qituvchisi.

BOTANIKA 6-SINF

“Botanika” fani umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfida tugatiladi. O‘quvchilar botanika fanidan ma’lum bilim, ko‘nikma, malakalar va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Botanika fanidan bosqichli nazorat og‘zaki so‘rov shaklida o‘tkaziladi. Bunda biletlar soni 30 ta bo‘lib, har bir biletida 3 tadan savol va topshiriqlar berilgan. Savol nazariy va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish bo‘yicha topshiriqlardan iborat bo‘ladi.

Topshiriqlarga tayyorgarlik uchun 20 daqiqa vaqt ajratiladi.

O‘quvchilarni baholashda to‘g‘ri javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib o‘rtacha ball chiqariladi. Masalan: $5+4+3=12:3=4$

O‘quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezon

№	Baholash mezon	Baho
1	Savollar mazmunan to‘la ochib berilsa, tushunchalar to‘liq va aniq yoritilsa.	5
2	Javoblar asosan to‘g‘ri, lekin izchillik buzilgan, qonuniyatlar va nazariyalar tavsifida qisman noaniqliklar bo‘lsa.	4
3	Javoblar qisman to‘g‘ri, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.	3
4	Javoblar to‘g‘ri xulosalanmagan, fikrlar chalkash, tushunchalarda xatolar ko‘p.	2
5	Tushunchalar noto‘g‘ri talqin etilgan, javoblar xato bo‘lsa.	1

Amaliy ish va laboratoriya mashg‘ulotlarini baholash mezon

№	Baholash mezon	Baho
1	Laboratoriya ishini bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan holda to‘g‘ri va to‘liq bajarilgan, rasm va jadvallar to‘g‘ri ifodalangan, to‘g‘ri xulosalangan bo‘lsa.	5
2	Ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan. Tajribalar to‘liq bajarilgan, lekin natijalarni ifodalashda kichik xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.	4
3	Ishni bajarish ketma-ketligiga to‘liq rioya etilmagan. Ish qisman to‘g‘ri bajarilgan, lekin natijalar rasm va jadvallarda ifodalanmagan bo‘lsa.	3
4	Jihozlar to‘g‘ri tanlangan, lekin ishini bajarish ketma-ketligiga rioya etilmagan, ishini bajarishga to‘g‘ri yondashilmagan bo‘lsa.	2
5	Jihozlar to‘g‘ri tanlanmagan, ish noto‘g‘ri bajarilgan.	1

Amaliy ishlar va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar oldindan tayyorlab qo‘yilishi lozim.

Botanika


6-sinf

1-BILET

1. Tabiatda o‘sadigan qanday dorivor o‘simliklarni bilasiz? Dorivorlik xususiyati haqida aytib bering?
2. O‘simliklar qanday hayotiy shakllarga ega?
3. Kartoshka tugunagini kesing va uning bir bo‘lagiga bir tomchi yod tomizing. Qanday o‘zgarish kuzatiladi? Kartoshka tugunagida qaysi modda zahira holda to‘plangan? Fikringizni izohlab bering?

2-BILET

1. Gullar qanday usullar bilan changlanadi?
2. O‘simliklar hayotida barglarning suv bug‘latishi qanday ahamiyatga ega?
3. Mikroskopning tuzilishini tushuntirib bering?



3-BILET

1. Meva va urug‘lar qanday yo‘llar bilan tarqaladi?
2. Ra‘nodoshlar oilasiga xos bo‘lgan xususiyatlarni ayting?
3. Maktab hovlisida o‘sovchi gulli o‘simliklardan foydalangan holda o‘simlik organlari va ularning vazifalarini aytib bering?


4-BILET

1. Urug‘lanish nima ?
2. Novdada barglar qanday joylashadi?
3. Rasmda ko‘rsatilgan jarayonni izohlab bering.



5-BILET

1. Hujayra va uning asosiy qismlari haqida ma'lumot bering ?
2. Karamdoshlar oilasiga xos bo'lgan xususiyatlarni ayting?
3. Ulotriksning jinsiy va jinsiz ko'payish sxemasini izohlang.



6-BILET

1. O'simliklarning turiga va o'sish sharoitiga qarab poyalarning xilma-xilligini misollar yordamida tushuntiring.
2. Qovoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
3. Olcha va gilos mevasini chumchuq ham, qarg'a ham iste'mol qiladi. Chumchuq mevani cho'qib yeydi. Qarg'a esa yutub yuboradi. Sizingcha bu qushlarning qaysi biri o'simlik uchun foyda keltiradi. Fikringizni izohlab bering?


7-BILET

1. Madaniy o'simliklarning qanday vegetativ ko'payish turlari ma'lum?
2. Mexanik to'qimaning tuzilishi va vazifasi haqida ma'lumot bering?
3. Gulning tuzilish qismlari va vazifalarini aniqlang.



8-BILET

1. Bargning tuzilishi va vazifasi haqida tushuncha bering?
2. Qoqio'tdoshlar oilasiga xos asosiy belgilar nimalardan iborat?
3. Ushbu rasmni izohlang.




9-BILET

1. Archaning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuntirib bering?
2. Gulxayridoshlar oilasiga mansub o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Tabiatda shunday o'simliklar borki, ular chorva mollari uchun to'yimli ozuqa hamda yerni azot bilan ham boyitadi. Bu o'simliklar qaysi oilaga mansub ularga misollar keltiring?


10-BILET

1. Qoplovchi to'qimaning tuzilishi va vazifasi.
1. Bir hujayrali yashil suvo'tlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ushbu rasmdagi o'simliklarning nafas olish tajribasini izohlang.



11-BILET

1. Ochiq urug'li o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ildiz turlari va tizimlari haqida ma'lumot bering.
3. Piyozning ichki tuzilishini izohlab bering.



12-BILET

1. Bir urug'pallali o'simliklarning urug'i ikki urug'pallali o'simliklarnikidan qanday farq qiladi?
2. Oshqovoq o'simligining tuzilishini tushuntirib bering?
3. Makkajo'xori 1mm^2 so'rish qismida 700 ta ildiz tukchalari bo'ladi. Makkajo'xori o'simligi ildizining 2sm^2 so'rish qismida joylashgan ildiz tukchalarining sonini hisoblab toping?

13-BILET

1. Botanika fani va uning asosiy bo‘limlari haqida tushuncha bering?
2. Barglarda organik moddalarning hosil bo‘lish jarayonini qanday amalga oshadi?
3. Quyida berilgan o‘simlikning hayotiy jarayonini ifodalab bering.



14-BILET

1. O‘simliklar sistematik birliklari haqida umumiy ma’lumot bering?
2. Kurtak haqida tushuncha bering?
3. Gerbariy va tabiiy o‘simliklardan foydalanib ildiz turlarini aniqlang?

15-BILET


1. Urug‘ning unib chiqishi uchun qanday sharoitlar zarur. Uning sababini tushuntiring?
2. Novda haqida tushuncha bering ?
3. Gulli o‘simliklarning 10000 turi asalarilar yordamida changlanadi. Agar Yer yuzida asalarilar bo‘lmaganda bu o‘simliklar taqdiri qanday hal bo‘lar edi. Javobingizni izohlang.

16-BILET

1. Bug‘doydoshlar oilasining ildizi, poyasi, bargi, guli va mevasi uvun xos belgilarni ayting?
2. Meva va uning turlari haqida aytib bering?
3. O‘simlik yoki daraxt ko‘chatini bir joydan boshqa joyga ko‘chirib o‘tqazishda nima uchun yaxshilab sug‘oriladi va ko‘chat tuprog‘i bilan ko‘chiriladi.

17-BILET

1. Mevalarning tabiatdagi va odamlar hayotidagi ahamiyati.
2. Yerbag‘ir tugmachagulning hayotiy shakli, poyasi, bargi, ildizi, guli, mevasiva dorivorlik xususiyatlari haqida ma’lumot bering?
3. Ushbu rasmda ko‘rsatilgan jarayonni izohlang.



18-BILET


1. O‘simliklarga qanday ekologik omillar ta’sir qiladi ?
2. Oddiy va murakkab to‘pgullar bir – biridan qanday farq qiladi ?
3. Turli o‘simlik barglaridan foydalanib oddiy va murakkab barglarga ajrating.

19-BILET

1. Barglarning ichki tuzilishi haqida tushuncha bering ?
2. Sho‘radoshlar oilasi vakillarining tabiatdagi ahamiyati haqida ma’lumot bering?
3. O‘sib turgan rayhon misolida o‘simlik organlarining o‘zaro bog‘liqligi haqida aytib bering?

20-BILET

1. Fotosintez nima?
2. O‘tkazuvchi to‘qima haqida tushuncha bering?
3. Ushbu rasmdagi o‘simlik haqida ma’lumot bering va har bir qismlari nomlarini ayting.




21-BILET

1. O‘simliklardagi umumiylik nimalardan iborat?
2. Oddiy qarag‘ayning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuntirib bering?
3. Nima sababdan bog‘ va ekinlar ekilgan maydonlarga asalari uyalarini qoyish lozim.

22-BILET

1. Poyaning ichki tuzilishi haqida tushuncha bering?
2. O‘simliklar hayotida o‘g‘itlarning ahamiyati qanday?
3. Ushbu rasmda berilgan urug‘larning unib chiqish jarayoni asosidagi kuzatuv natijalarini izohlang.




23-BILET

1. Zangori sachratqi klassifikatsiyasi.
2. Shakli o'zgargan ildiz turlari haqida ma'lumot bering?
3. Barglarda yorug'lik ta'sirida kraxmal hosil bo'lishi jarayonini tushuntirib bering?

24-BILET

1. Dala qirqbo'gimining tuzilishi haqida tushuncha bering?.
2. Hosil qiluvchi to'qimaning tuzilishi va vazifasi nimalardan iborat?
3. O'simlik hujayrasi qanday asosiy qismlardan iborat. Izohlab bering?



25-BILET

1. Piyozdoshlar oilasining xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
2. To'g'ri va qiyshiq gullarga ta'rif bering.
3. Madaniy o'simliklarning ko'payish usullari haqida ma'lumot bering.



26-BILET

1. Yopiq urug'li o'simliklarning o'ziga xos xususiyati haqida tushuncha bering?
2. O'simliklar hayotida yorug'lik qanday ahamiyatga ega?
3. Piyoz po'stidan preparat tayyorlash jarayonini tushuntirib bering?

27-BILET

1. Ko'p hujayrali yashil suvo'tlarning jinsiy ko'payishini tushuntirib bering?
2. Jag'-jag' o'simligining o'ziga xos xususiyatlari haqida aytib bering?
3. Urug' tarkibida suv borligini qaysi tajriba orqali aniqlash mumkin?

28-BILET

1. Poyaning bo'yiga o'sish sababini tushuntiring?
2. Gul qanday qismlardan iborat?
3. Rasmlarda qanday mevalar aks etgan? Ularga ta'rif bering.



29-BILET

1. Burchoqdoshlar oilasining o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha bering?
2. Kurtak payvand qanday qilinadi ?
3. Urug' tarkibida organik moddalar borligi qanday jarayon orqali aniqlanadi?

30-BILET

1. Namatakning tuzilishi va ahamiyati haqida tushuntirib bering?
2. Kuzda o'simliklar hayotida qanday o'zgarishlar yuz beradi.
3. Kurtakning tuzilishini tushuntirib bering?

